

Jizzakh State Pedagogical Institute



**Journal of Preschool
Education**

*The faculty of pre-school
education*

THE SCHOLARSHIP

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA INGLIZ TILINI O'YINLAR YORDAMIDA O'RGATISH METODLARI

Muytanova Mahliyo

Rahmonberdiyeva Gulnoza

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 530-20-guruh talabalari

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'yinlar yordamida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarga ingliz tilini o'rgatish haqida bayon etilgan.

Аннотация. В данной статье описано обучение английскому языку детей в дошкольных образовательных учреждениях с использованием игр.

Annotation. This article describes the teaching of English to children in preschool educational institutions using games.

Kalit so'zlar: xorijiy til, erta yoshda til o'rganish, ta'limiy o'yin, faoliyat, nozik vosita mahorati, ko'z-qo'l muvofiqlashuvi, faol ta'lim turlari, ingliz tilida blok o'ynash, rol o'yinlar, qo'l mehnati.

Ключевые слова: иностранный язык, обучение языку в раннем возрасте, развивающая игра, деятельность, мелкая моторика, зрительно-моторная координация, активные виды обучения, блок-игра на английском языке, ролевые игры, ручной труд.

Key words: Foreign language, language learning at an early age, educational game, activity, fine motor skills, hand-eye coordination, active learning types, block play in English, role-playing games, manual labor.

Dunyo globalashuv jarayoni insonlardan o'z ona tilidan tashqari yana bir necha xorijiy tillarni o'rganishni taqozo qilmoqda. Hozirgi tadqiqotlar ushbu jarayonni erta yoshda boshlash samariliroq bo'lishini ko'rsatadi. Bizning yurtimizda ham ushbu masalaga qat'iy e'tibor qaratilgan, xorijiy tillarni o'qitishda xususan ingliz tilini o'qitishda dunyoning yetakchi tashkilot va universitetlar hamkorligida yangicha yondashuv asosida dasturlar ishlab chiqilmoqda. Oxirgi 3 yilda bu jarayon maktabgacha ta'limda ayniqsa o'z rivojini topmoqda. Davlat qaramog'idagi hamda xususiy tarmoqdagi maktabgacha ta'lim muassasalarda ingliz tilini o'rgatish bo'yicha keng ko'lamli loyihalar amalga oshirilmoqda. Ushbu maqolada chet tillarini xususan, ingliz tilini bolalikni ilk yoshida o'qitishda ta'limiy o'yinlardan foydalanishning muhimligi va aynan turli o'yinlar orqali til ko'nikmalari oson o'zlashtirilishi yuzasidan fikrlar yoritilgan. Bog'cha va maktab yoshida o'yin bolaning eng asosiy va sevimli mashg'uloti bo'lganligi tufali bola atrof olamni ham o'yin orqali kashf etadi. Davlat talablarining maqsadi ham mamlakatda o'tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni, xorijiy mamlakatlar

ilg'or tajribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy informatsion kommunikativ texnologiyalarni inobatga olgan holda maktabgacha ta'lim tizimida ma'nan mukammal va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdir. Demak aynan bolalarning ilk yoshida organgan bilimi ajdodlarimiz aytganidek “toshga bititishi” bejis emas ekan. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan xolda xorijiy tillarni ham bolalarga erta yoshida o'rgatish til ko'nikma va malakalarining oson o'zlashtirishiga sabab bo'lar ekan. Ayniqsa ushbu bilim, ko'nikma, malakalar turli o'yin va ta'limiy faoliyatlar orqali singdirib borilsa, bola xorijiy tillarni o'z ona tilisi kabi tabiiy tarzda rivojlantirib boradi. Ta'limiy o'yinlar bolada nafaqat bilim ko'nikma, malakalarni shakllantiradi balki shu bilan birga u bolani jismonan sog'lom rivojlanishini ta'minlaydi, ruhan tetiklashtiradi, o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi hamda atrofdagilar bilan ijtmoy munosabatlarni shakllantirishga katta ko'mak beradi.

Agar xorijiy tillarni ham o'yinga qorishtirgan xolda o'rgatilsa bu til ko'nikmalarining o'zlashtirish samaradorligini bir necha barobarga oshiradi. O'yin bolani nafaqat jismoniy faolligini oshiradi shuningdek ruhiy tetiklikni ham shakllantirishga yordam beradi. O'yin bolani o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga, atrofdagilar bilan ijtmoy munosabatlarni shakllantirishga ham katta ko'mak beradi. Shu sababli ota –ona va tarbiyachi murabbiylar bolalarga imkon qadar ko'proq o'yin orqali o'rganishni targ'ib qilishlari kerak. Aynan o'yin orqali bolalar ta'lim oladilar va o'z iqtidorlarini kashf etadilar. Bunga erishish uchun sezgi organlarini faollashtiruvchi muhitni, jumladan vizual, eshitish, kinestetik kabi faol ta'lim turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq xisoblanadi. Ta'limiy o'yinlar musiqa asboblarni chalish, qo'shiqlar kuylash, she'r aytish, raqsga tushish, o'yin o'ynash, videolar tomosha qilish, qo'l mehnati vositasida turli narsalar yasashni o'z ichiga oladi. Bola tabiatan juda qiziquvchan bo'ladi va u atrof olamni o'rganish uchun barcha xis tuyg'ularini ishga soladi. O'yin bolaning eng asosiy va sevimli mashg'uloti bo'lganligi bois, bolaga atrof olam va undagi barcha zaruriy bilim va ko'nikmalar o'yin vositasida tanishtirib borilsa, ko'nikmalarni o'zlashtirish samaradorligi bir necha barobarga oshadi.

O'yin bolani nafaqat jismoniy faolligini oshiradi shuningdek, u ruhiy tetiklikni ham shakllantirishga yordam beradi. O'yin bolani o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga, atrofdagilar bilan ijtmoy munosabatlarni shakllantirishga ham katta ko'mak beradi. Shu sababli ota — ona va tarbiyachi murabbiylar bolalarga imkon qadar ko'proq o'yin orqali o'rganishni targ'ib qilishlari kerak. Aynan o'yin orqali bolalar ta'lim oladilar o'z iqtidorlarini kashf etadilar. Bunga erishish uchun sezgi organlarini faollashtiruvchi muhitni, jumladan vizual, eshitish, kinestetik kabi faol ta'lim turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ta'limiy o'yinlar musiqa asboblarni chalish, qo'shiqlar kuylash, she'r aytish, raqsga tushish, o'yin o'ynash, videolar tomosha qilish, qo'l mehnati

vositasida turli narsalar yasashni o'z ichiga oladi. Rangli ko'rgazmalar, kartalar, musobaqalar, rol o'yinlar, turli shakllar yasash kabi o'yinlar bolalarni jismoniy va aqliy faoliyatini rivojlantiruvchi eng qiziqarli usullardan biridir [8.3iSing a song (birgalikda qo'shiq kuylash). Bolajonlarning eng yoqimli mashg'ulotlaridan biri.

Bolalar yoshlikdan qo'shiq kuylashga moyil bo'ladilar va qo'shiq kuylash vositasida bolalar nafaqat so'z boyligini orttiradilar shu bilan birga ular so'zlarni ohangga solib aytishni o'rganadilar. Kichik yoshdagi bolalar orasida kuylanadigan inglizcha qo'shiqlarining eng ommabop turlaridan biri “ Rain, Rain go away” qo'shig'idir.

Rain, rain, go away

Come again another day

Daddy wants to play

Rain, rain go away...

Xulosa. Bolalarning maktabda qanday o'qishi, yuksak maqsadlar bilan kamol topishi ko'p jihatdan oila muxuti, mahalla e'tibori hamda maktabgacha ta'lim muassasasidagi tarbiyaga bog'liq. Maqolada berilgan ilmiy kuzatishlar va tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson umri davomida oladigan barcha axborotning 70 foizini 6 yoshgacha bo'lgan davrda olishi aynan bola shaxsining rivojlanishida maktabgacha ta'limning o'rni nechog'li muhimligidan dalolat beradi.

Adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentyabrdagi «Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillatirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3261-son qarori;
2. O'z DSt 17368–2020 “Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash haqida
3. Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari va boshlang'ich maktab o'quvchilariga chet tilini o'rgatishda o'yinlar. Baxramova M. D. Tuzuvchi: Baxramova M. D., — T.2016.
4. <https://raisingchildren.net.au/newborns/play-learning/play-ideas/why-play-is-important> internet resurs

Maktabgacha ta'lim jurnali: <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/index>

5. <https://www.britishcouncil.org/voices-magazine/how-young-children-learn-english-through-play> internet resurs